

“O‘QISH — TALQIN — HAQIQAT: UMBERTO ECONING
G‘OYAVIY DUNYOSI”

Samarqand davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Qurbonova Shahrizoda Obidjonovna

Dotsent Usarova Laylo Ibragimovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy adabiyot va falsafaning yirik namoyandalaridan biri — *Umberto Econing g‘oyaviy dunyosi* tahlil qilinadi. Muallifning o‘qish, talqin va haqiqat tushunchalariga bergan yondashuvi orqali matn va o‘quvchi o‘rtasidagi murakkab munosabat ochib beriladi. Eco nazarida har bir matn ko‘p ma‘nolilikka ega bo‘lib, uni o‘quvchi talqini orqali yangi ma‘nolar bilan boyitish mumkin. Maqolada shuningdek, yozuvchining semiotika, bilish nazariyasi va madaniyat falsafasi borasidagi qarashlari tahlil qilinib, uning postmodern tafakkurdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Umberto Eco, o‘qish va talqin, haqiqat izlanishi, semiotika, matn va o‘quvchi, belgilar olami, Atirgul nomi, Fuko mayati, postmodern tafakkur, madaniyat kodi, ma‘no qatlamlari, shubha falsafasi, bilim va ramz.*

**"Reading, Interpretation, and Truth: Exploring Umberto Eco's
Intellectual Universe"**

Samarkand State Pedagogical Institute 2nd-Year Student ***Qurbonova***

Shahrizoda Obidjonovna

Associate Professor ***Usarova Laylo Ibragimovna***

Annotation: *This article analyzes the intellectual world of Umberto Eco, one of the prominent figures in contemporary literature and philosophy. Through the*

author's approach to reading, interpretation, and the concept of truth, the complex relationship between text and reader is explored. According to Eco, every text possesses multiple layers of meaning, which can be enriched through the reader's interpretation. The article also examines Eco's views on semiotics, theory of knowledge, and cultural philosophy, highlighting his position within postmodern thought.

Keywords: Umberto Eco, reading and interpretation, search for truth, semiotics, text and reader, world of signs, *The Name of the Rose*, Foucault's Pendulum, postmodern thought, cultural code, layers of meaning, philosophy of doubt, knowledge and symbol.

«Чтение — интерпретация — истина: интеллектуальный мир Умберто Эко»

Курбонова Шахризода Обиджоновна, студентка 2 курса
Самаркандского государственного педагогического института.

Доцент Усарова Лайло Ибрагимовна

Аннотация: В данной статье анализируется интеллектуальный мир Умберто Эко, одного из видных представителей современной литературы и философии. Через подход автора к чтению, интерпретации и понятию истины раскрываются сложные отношения между текстом и читателем. По мнению Эко, каждый текст обладает множеством смысловых слоёв, которые могут обогащаться через интерпретацию читателя. В статье также рассматриваются взгляды писателя на семиотику, теорию познания и философию культуры, подчеркивается его место в постмодернистском мышлении.

Ключевые слова: Умберто Эко, чтение и интерпретация, поиск истины, семиотика, текст и читатель, мир знаков, *Имя розы*, Маятник Фуко, постмодернистское мышление, культурный код, слои смысла, философия сомнения, знание и символ.



Umberto Eco (5 yanvar 1932 – 19 fevral 2016) – italyan yozuvchisi, faylasuf, semiotika olimi va adabiyotshunos bo‘lib, XX asrning eng nufuzli intellektual shaxslaridan biri hisoblanadi. U Italiyada, Aleksandriya shahrida tug‘ilgan va Boloniya universitetida tahsil olgan. Eco o‘rta asrlar adabiyoti, madaniyatshunoslik va belgilar tizimini (semiotika) chuqur o‘rganish orqali dunyo miqyosida tanilgan. Uning ilmiy faoliyati belgilar va ma’nolarni tahlil qilish, madaniy aloqalar va ijtimoiy kommunikatsiya tizimlarini izohlashga qaratilgan bo‘lib, bu sohada ko‘plab ilmiy maqolalar, kitoblar va esselar yaratgan. Yozuvchi sifatida Eco eng mashhur asari – 1980 yilda nashr etilgan “Il Nome della Rosa” (Rosaning nomi) romani bilan tanilgan. Ushbu roman tarixiy detektiv janrida yozilgan bo‘lib, murakkab syujet, falsafiy mulohazalar, diniy va madaniy tafakkur elementlarini birlashtiradi. Roman nafaqat o‘quvchilarni romanning o‘rta asrlar fonidagi sirli voqealariga jalb qilgan, balki u ilmiy va badiiy yondashuvni uyg‘unlashtirgan asar sifatida adabiyotshunoslikda ham katta e’tirof qozongan. Roman dunyo bo‘ylab ko‘plab tillarga tarjima qilingan va ekranlashtirilgan. Shuningdek, Eco “Foucault penduli”, “Baudolino”, “Il cimitero di Praga” kabi boshqa asarlari orqali o‘quvchilarga murakkab, ammo qiziqarli va tafakkurli hikoyalarni taqdim etgan. Umberto Eco shaxsiyati bilan ham keng e’tirofga sazovor bo‘lgan. U bilimga chanqoq, hazil-mutoyiba va ironiyani qadrllovchi inson sifatida tanilgan. Eco nafaqat adabiyot, balki ijtimoiy va siyosiy masalalar bo‘yicha ham faol fikr bildirgan. U jurnalistika bilan shug‘ullangan, maqolalari va esse orqali zamonaviy dunyo masalalarini tanqidiy nuqtai nazardan yoritgan. Eco shuningdek akademik faoliyati bilan ham mashhur bo‘lgan. U semiotika, o‘rta asrlar adabiyoti va madaniy kommunikatsiya sohalarida dars bergan va ko‘plab talabalar va olimlarni ilhomlantirgan. Uning ilmiy ishlari o‘quvchilar va tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Umberto Eco dunyo madaniyati va adabiyotiga katta hissa qo‘shgan, zamonaviy tafakkur va yaratuvchanlikni uyg‘unlashtirgan shaxs sifatida tarixda o‘z o‘rnini mustahkamlagan. Uning asarlari nafaqat ilmiy, balki badiiy jihatdan ham dunyo adabiyoti merosining ajralmas qismiga aylangan,

o'quvchilarga o'rta asrlar, madaniyat va inson tafakkuri haqida chuqur tushuncha beradi.

1965- yildan to hozirgi kunga qadar ikki xil qarash ochiq-oydin ko'zga tashlanardi. Boshqa hikoya qilinayotgan adabiyotda syujet ichidan syujet izlash va u hikoya qilinuvchi syujetdan ko'ra ko'proq murosasoz syujet mavjuddek tuyulardi. Demak, isyonkorlik ruhida ham yetarlicha muammolarga boy va albatta, yoqimli roman yozish mumkin ekan. Amerika postmodernizmi nazariyotchilarining fikricha, nafaqat syujet izlash, balki asar ko'ngil ovlash vazifasini ham bajarishi darkor. Afsuski, "postmodernizm" atamasini qanday ma'qul bo'lsa, shunday – istalgan narsaga nisbatan qo'llashmoqda. Goho uning ma'nosini o'tmishga olib borib taqashga urinishmoqda. Holbuki, postmodernizm avvalo ba'zi yozuvchi va san'atkorlar ijodida keyingi yigirma yil ichida ko'rina boshladi. Keyin asta-sekinlik bilan asr boshi, keyinroq esa olis o'tmishga borib taqaldi. Yana olislashda davom etmoqda. Hatto Homerning o'zini ham postmodernist deb atashmoqda. Umuman, postmodernizm shunday bir yo'nalishki, uni aniq bir davr yoki zamonga taqab bo'lmaydi. Bu ruhiy daraja, aniqrog'i, san'atga kuchli ishtiyoq, ta'sir qilish usuli. Shuni aytish mumkinki, har bir davrning o'z postmodernizmi mavjud, xuddi shuningdek, har bir davrning o'z uslubi menimcha, postmodernizm ko'proq – manerizmning zamonaviy muqobili bo'lib ko'rinadi. Shunday o'ylashga to'g'ri kelyaptiki, Nitsshening "Bevaqt tug'ilgan mulohazalar" asarida tasvirlanganidek, o'tmish va har qanday davr izlanishlarida inqirozli lahzalar yuz ko'rsatyapti. O'tmish bizga talablar qo'yadi, bizni esa qo'yib yubormaydi, do'q-po'pisa qiladi. O'tgan davr avangardizmi o'tmish bilan hisob-kitob qilishga urinadi. Futuristlarning shiori "Oy shu'lasini yo'qolsin!" – xohlagan avangardning tipik dasturi, oy shu'lasini faqat biror-bir arziydigan narsaga almashtirsagina bo'ladi. Avangard an'anaviy obrazlilikni parchalaydi: "Avinonlik qiz" – tipik avangardcha ishora. Bundan so'ng avangard obrazlarni parchalab, tugatib, mavhumlik, shaklsizlik, tilka-pora bo'lgan bo'z mato chegaralarigacha ilgari ketdi. Shuningdek, Eco postmodernizmni tanqidiy ko'z bilan ham baholaydi. U haddan tashqari relativizm va ma'nolarning ortiqcha ko'pligini tanqid

qiladi, ammo ma'lumotlarning ko'pligi va belgisizlikni inson tafakkurini rivojlantirish va yaratuvchanlik imkoniyati sifatida ham qadrlaydi. Umberto Eco postmodernizmni yashab, tahlil qilgan va uni o'z asarlarida ko'p qirrali, ironik va ma'noli tarzda aks ettirgan muhim mutafakkirdir. Umberto Eco'ning romanlari postmodern elementlarni juda aniq ko'rsatadi:

“Gulning Nomi” (Il nome della rosa): Tarixiy detektiv janri, falsafiy munozara va matnlararo o'yin birlashadi. Asar qatlamli ma'no va ironiyaga boy.

“Fukoning Sarkochi” (Il pendolo di Foucault): Matn va ramzlarning inson tomonidan talqin qilinishi, ma'nolarning yaratilishi va o'zgartirilishi ironik tarzda ko'rsatiladi. Bu o'quvchiga ma'no yaratish imkonini beradi.

Eco postmodernizmni tanqid qilgan, lekin butunlay rad etmagan. U haddan tashqari relativizmni tanqid qiladi, lekin ma'nolarning ko'pligini va matnlarning ochiqqligini yaratuvchanlik va tafakkur imkoniyati sifatida qadrlaydi.

Xulosa: Umberto Eco postmodernizm dunyosini chuqur tushunib, uni o'z asarlarida ijodiy va tanqidiy tarzda aks ettirgan. U matnlarning qat'iy ma'noga ega emasligini, ma'nolar o'quvchi va kontekst orqali yaratilishini ko'rsatgan. Romanlarida tarix, ramz va ironiyani birlashtirib, postmodern dunyoning murakkabligini ochib beradi. Eco, shuningdek, haddan tashqari relativizmga qarshi turib, ma'nolarning ko'pligi va matnlarning ochiqqligini tafakkur va yaratuvchanlik imkoniyati sifatida qadrlaydi. Shu tariqa, Eco postmodernizmni nafaqat yashab, balki uni tahlil qiladigan va o'ziga xos estetik va intellektual qirralarini namoyish qiladigan mutafakkir sifatida ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Butler Ch. Postmodernizm. Qisqacha kirish.-AQSH.:2002.
2. Appignanesi R , Garrat Ch . Postmodernizmga kirish . -BQ .: 1999.
3. Solomon, Aubrey (1989). Twentieth Century Fox: A Corporate and Financial History. Scarecrow Press. p. 260